

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI

\*\*\*

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
МАШИНОСТРОЕНИЕ

\*\*\*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL  
MACHINE BUILDING

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining "Mashinasozlik" ilmiy-tekniqa jurnali "TEXNIKA" va "IQTISODIYOT" fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.*

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to'liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-tekniqa jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas'uldirlar.

**MASHINASOZLIK**  
**ILMIY-TEXNIKA JURNALI**

**Bosh muharrir:**

U.M.Turdialiyev – texnika fanlari doktori, k.i.x.

**Mas’ul muharrir:**

U.A.Madrahimov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**T A H R I R H A Y ’ A T I**

Negmatov Soyibjon Sodiqovich – texnika fanlari doktori, professor O‘ZRFA akademigi (TDTU);  
Abralov Maxmud Abralovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Dunyashin Nikolay Sergeevich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Norxudjayev Fayzulla Ramazanovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Pirmatov Nurali Berdiyarovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Salixanova Dilnoza Saidakbarovna – texnika fanlari doktori, professor (O‘zRFA UNKI);  
Siddikov Ilxomjon Xakimovich – texnika fanlari doktori, professor (TIQXMMI);  
Fayzimatov Shuhrat Numanovich – texnika fanlari doktori, professor (FarPI);  
Xakimov Ortigali Sharipovich – texnika fanlari doktori, professor (Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti);  
Xo‘jayev Ismatillo Qo‘schiyevich – texnika fanlari doktori, professor (Mexanika instituti);  
Ipatov Oleg Sergeyevich – professor (Sankt-Peterburg politexnika universiteti, Rossiya);  
Naumkin Nikolay Ivanovich - p.f.d., t.f.n., professor. (Mordov milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya);  
Aliyev Suxrob Rayimjonovich – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (AndMI);  
Shen Zhili – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Hu Fuwen – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Won Cholyeon – professor (Janubiy Koreya Milliy tadqiqotlar fondi, Janubiy Koreya);  
Celio Pina – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Ricardo Baptista – prosessor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Rui Vilela – prosessor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Dmitriy Albertovich Konovalov - t.f.n., professor (Voronej davlat texnika universiteti);  
Мухаметшин Вячеслав Шарифуллович – директор Института нефти и газа федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский государственный нефтяной технический университет» (филиал в г.Октябрьском), доктор геологоминералогических наук, профессор.  
Nimchik Aleksey Grigorevich – kimyo fanlari doktori, professor (TDTU Olmaliq filiali)  
Muftaydinov Qiyomiddin – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (AndMI);  
Zokirov Saidfozil – i.f.d., (Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti);  
Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna - t.f.d., dotsent (AndMI)  
Jo‘raxonov Muzaffar Eskanderovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (AndMI);  
Ermatov Akmaljon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Qosimov Karimjon – texnika fanlari doktori, professor (AndMI);  
Yusupova Malikaxon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Akbarov Xatamjon Ulmasaliyevich – texnika fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Mirzayev Otobek Abdiraximovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI);  
Soxibova Zarnigorxon Mutualibjon qizi – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI);  
Raxmonov O‘ktam Kamolovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU, Olmaliq filiali);  
Xoshimov Xalimjon Xamidjanovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI).  
Kuluyev Ruslan Raisovich - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU).

**Texnik muharrir:**

B.I.Iminov, M.B.Kenjayeva – Andijon mashinasozlik instituti nashriyoti.

**Tahririyat manzili:** Andijon shahar, Bobur shox ko‘cha, 56-uy. **Tel:** +998 74-224-70-88 (1016)

**Veb sayt:** [www.andmiedu.uz](http://www.andmiedu.uz)

**e-mail:** [andmi.jurnal@mail.ru](mailto:andmi.jurnal@mail.ru)

“Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2020 yil 28- fevraldagi 04-53-raqamli guvohnomasiga binoan chop etiladi.

<b>Mashinasozlik va mashinashunoslik. Mashinasozlikda materiallarga ishlov berish.</b> <b>Metallurgiya. Aviatsiya texnikasi</b>	
Характеристика фосфоритов центральных кызылкумов <b>Орипова З.М., Ортикова С.С., Турдиалиев У.М.</b>	4
Takomillashgan linterlash jarayoni va arrali linter uskunalarining ish unumdorligini oshirish <b>Madrahimov D.U., To'ychiyev Sh.Sh.</b>	11
Aналитическая оценка силы микрорезания при абразивоструйной обработке металлических поверхностей <b>Искандарова Н.К.</b>	16
Elektrodlar qoplamasи tarkibidagi legirlovchi elementlarning payvand chok xususiyatlariga ta'siri <b>Umarov A.M.</b>	24
<b>Energetika va elektrotexnika. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirish texnologiyasi. Elektronika</b>	
Sanoat korxonalari elektr tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yuklama ko'rsatkichlari va elektr energiya sifat ko'rsatkichlariga ta'siri <b>To'xtashev A.A., Kadirov K.Sh.</b>	30
6,10/0,4 kV kuchlanishli ekspluatatsiyadagi kuch transformatorlarining pastki chulg'amida kuchlanishni rostlovchi o'ramlari soni va ko'ndalang kesim yuzasini hisoblash <b>Qobilov M.X., To'ychiyev Z.Z.</b>	39
<b>Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash texnologiyasi</b>	
Определение оптимальных параметров реактивной гидротурбины на основе колеса сегнера <b>Узбеков М.О., Урмонов С.Р.</b>	45
Kolosnik yo'lakchalari bo'ylab chigitlar to'plamining harakati <b>Mamasharipov A.A.</b>	54
Sanoat pechlarining, yaratilish tarixi, ahamiyati va qo'llanilish sohalari <b>Soxibova Z.M.</b>	59
<b>Transport</b>	
Motor moyi sifatini avtomatik nazorat qilishda pezo elementlarining o'rni va ahamiyati <b>Saydaliyev I.N.</b>	63
Avtomobilsozlik sanoatida innovatsion indeks, asosiy tendensiyalar va muammolar <b>Islomov Sh.E., Shavqiyev E.A.</b>	72
Avtomobil polimer detallarini mahalliy polimer kompozitsion materiallardan quyish parametrlarini optimallashtirish <b>Almataev N.T.</b>	78
<b>Iqtisodiyot</b>	
Исламская финансовая система <b>Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т., Саримсаков Х., Шермухамедов Б.А.</b>	83
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning sanoatda va boshqa sohalardagi o'rni va ta'siri. (Andijon viloyati misolida) <b>Ataxanov K.A.</b>	97
Ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlikning mazmuni va mohiyati <b>Abdullahov A., Abdusattarov S.H.</b>	105
Kичик бизнес барқарор ривожланишида молиявий ресурсларнинг шаклланиш босқичлари <b>Кетманов А.М.</b>	111
Роль малого бизнеса в экономике страны, его дальнейшее развитие <b>Кенжасева М.Б.</b>	118

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA  
ULARNING SANOATDA VA BOSHQA SOHALARDAGI O'RNI VA TA'SIRI.  
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

*Ataxanov Kozimjon A'zamjanovich*  
*Andijon mashinasozlik instituti, stajor-tadqiqotchisi*  
*E-mail: [ataxanov.kozimjon87@gmail.com](mailto:ataxanov.kozimjon87@gmail.com), [ataxonov@bk.ru](mailto:ataxonov@bk.ru)*

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Unda mamlakatimiz hududlaridan biri bo'lgan Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bandlik, sanoat tarmoqlari, sanoat mahsulotlari, rivojlanish ko'rsatkichlari.*

**РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА, ИХ РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ  
И ДРУГИХ ОТРАСЛЯХ.  
(НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

*В данной статье определены приоритетные направления повышения занятости населения за счет развития малого бизнеса и частного предпринимательства в промышленности. В нем проанализировано развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Андижанской области, одном из регионов нашей страны, его роль в социально-экономическом развитии и обеспечении занятости населения.*

**Ключевые слова:** *малый бизнес, частное предпринимательство, занятость, отрасли, промышленная продукция, показатели развития.*

**DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE  
ENTREPRENEURSHIP AND THEIR ROLE AND INFLUENCE IN INDUSTRY AND  
OTHER INDUSTRIES.  
(ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN REGION)**

*This article sets out the priorities for increasing the employment of the population through the development of small business and private entrepreneurship in the industry. It analyzes the development of small business and private entrepreneurship in the region of Andijan, one of the regions of our country, its role in socio-economic development and employment.*

**Keywords:** *small business, private entrepreneurship, employment, industries, industrial products, development indicators.*

**KIRISH**

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini ustuvor rivojlantirishga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

to‘g‘risida”gi 2019-yil 13-avgustdagи PF-5780-son Farmoni[1] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2019-yil 13-avgustdagи PQ-4417-son qarorlarini qabul qilinishi[2] kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu soha mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o‘tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan hisoblanadi.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini majmuini tashkil etish jarayoni muvaffaqiyatlari tarzda amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida bu turdagи korxonalar texnologik yangiliklarni joriy etishda ham g‘oyat katta ahamiyatga ega[3].

B.Ibratov o‘z tadqiqotlarida bu sohani quyidagicha ta’riflagan, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining alohida bo‘g‘inlarida takror ishlab chiqarish borasida xizmat ko‘rsatuvchi tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xo‘jalik munosabatlarining majmuidir”[4].

Ayni paytda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu masala, davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Aholini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jaib etish orqali nafaqat aholini va insonlarni turmush darajasini oshirish balki, eng muhim, aholi bandligini ta‘minlash bugungi kunda globallashuvning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar, qator dasturiy yo‘nalishlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

### ASOSIY QISM


Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini katta. 2023-yilda viloyatda YaHM dagi korxonalarining 69,7 foizdan ortig‘i, ishlab chiqarilgan yalpi sanoat mahsulotining 22,4 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari ulushiga to‘g‘ri keladi. Qurilish sohasida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushu 96,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, aholining 80,2 foizi shu sohada band bo‘lganlar hisoblanadilar. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi milliy iqtisodiy tizim hamda uning soha va tarmoqlari, hududlari iqtisodiy ko‘satkichlardagi ulushining ijobjiy o‘zgarishidir[5].

1-jadval

**Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)

Yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>YaHM</b>	83,6	80,2	73,1	69,7	70,1	72,2	69,5	69,7
<b>SANOAT</b>	50,4	34,5	21,2	17,7	20,1	27,1	22,4	22,4
<b>QURILISH</b>	93,2	93,8	96,9	94,9	93,3	95,2	93,8	96,1
<b>BANDLIK</b>	84,4	84,2	81,7	81,8	81,0	80,7	80,2	80,2

Andijon viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i bo‘lgan sanoat sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 16 211,5 mlrd. so‘mga yetganligini va 2016 yilga nisbatan qariyb 4 barobar organligini ko‘rshimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining sanoat sohasidagi faoliyatini 2016-2023-yillar rivojlanish tendensiyasi (darajasi).**

2-jadval


**Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining taxlili (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**

	Ro'yxatga olingan							O'zgarishi 2017/2023 %
	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	
<b>Jami</b>	<b>23 063</b>	<b>21 631</b>	<b>23 978</b>	<b>28 880</b>	<b>35 795</b>	<b>38 057</b>	<b>42 166</b>	<b>182,82 %</b>
shu jumladan:								
sanoat	5 181	5 077	5 809	7 112	9 249	9 977	10526	203,17 %
qurilish	2 370	2 220	2 533	2 981	3 338	3 374	3 583	151,18 %
savdo	7 695	6 871	7 302	9 147	11 618	12 824	14341	186,36 %
tashish va saqlash	864	884	1 100	1 248	1 427	1 413	1 557	180,20 %
axborot va aloqa	594	541	558	596	685	623	697	117,34 %
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	382	425	585	700	854	962	1093	286,13 %
boshqa turlari	2 514	2 541	2 775	3 204	3 689	3 654	4091	162,73 %
<b>Yangi tashkil etilgan</b>								
	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	
<b>Jami</b>	<b>2 662</b>	<b>2 476</b>	<b>3 131</b>	<b>6 632</b>	<b>7 684</b>	<b>7 111</b>	<b>5 406</b>	<b>203,09 %</b>

shu jumladan:								
Sanoat	539	832	853	1 829	2 438	2 028	1062	197,03 %
Qurilish	205	229	445	589	440	447	260	126,83 %
Savdo	1 170	574	747	2 615	2 718	2 726	1881	160,77 %
tashish va saqlash	83	150	220	214	219	145	164	197,60 %
axborot va aloqa	45	63	62	106	129	150	115	255,56 %
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	30	86	165	137	150	156	134	446,67 %
boshqa turlari	232	200	241	377	409	407	396	170,69 %

### Manba: Andijon viloyati statistika qo'mitasi

Bugungi kunda Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni 42166 tani shundan yangi tashkil etilganlari soni 5406 tani, sanoat korxonalari soni esa 10526 tani shundan yangi tashkil etilganlari soni 1062 tani tashkil etadi (2-jadval). Ularning hududiy va tarmoq tarkibi tog'risidagi ma'lumotlar ham jadvalda aks ettirilgan bo'lib, kichik sanoat korxonalaridan qurilish sanoatida 22,9%, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 5,2%, mashinasozlik va metallni qayta ishlash 15,1%, yengil sanoat 22,9% va sanoatning boshqa tarmoqlari 32,3 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, eng past ko'rsatkichlik viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik sanoat korxonalari tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ko'rsatkich, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish 0,9%, neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 3,3% ni tashkil qilmoqda. Bundan shuni aytish mumkinki, bu tarmoqlarning kichik sanoat tarmoqlari tarkibidagi ulushi mintaqada faoliyat yuritayotgan korxonalarning juda past ko'rsatkich ko'rsatayotganligidan dalolat beradi (2-rasm).



**2-rasm. Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining sanoat tarmog‘i tarkibidagi ulushi to‘g‘risidagi ma‘lumot.**

Andijon viloyatida sanoat sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini hududlar kesimida tahlil qilganimizda, bu sohada ulushi yuqori yoki past bo‘lgan shahar va tumanlar kesimida ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Xususan, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari tarkibi jihatidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushu yuqori ko‘rsatilgan Andijon shahrida 13,9%, va Asaka tumanida 57,7% ni tashkil etgan yirik sanoat korxonalari qayd etilgan bo‘lsa, Buloqaboshi, Bo‘ston, Ulug‘nor, Marhamat, Oltinko‘l, Paxtaobod tumanlari esa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jihatidan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib turibdi (3-jadval).

Ayni paytda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga qaratilayotgan e’tibor tufayli, har bir soha o‘ziga hos o‘rin egallamoqda. Buni nafaqat respublika, balki viloyat iqtisodiyotida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Andijon viloyati misolida jami kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat yuritayotganlar ulushi ortib borayotgani yuqoridagi fikrimizning yaqol tasdig‘ini topayotganligini ko‘rshimiz mumkin. Ayni paytda bu ko‘rsatkich viloyatda o‘rtacha 20 foiz atrofida, ammo bu ko‘rsatkich viloyatning shahar va tumanlarida bir-biridan keskin farq qiladi. Viloyat tumanlari va shaharlari bo‘yicha “Jami kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat yuritayotganlarning ulushini” to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganishga harakat qildik.

3-jadval

**Andijon viloyati shahar va tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlili**  
(amaldagi narxlarda; mlrd so‘m)

Shahar va tuman nomlari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	O‘zgarishi 2017/2023, mlrd. so‘m	O‘zgarishi 2017/2023, ulushda (%)
<b>Andijon viloyati</b>	<b>13 269,8</b>	<b>27 454,7</b>	<b>33 122,3</b>	<b>36 376,5</b>	<b>35 935,3</b>	<b>54 352,5</b>	<b>73 579,3</b>	<b>60 309,5</b>	<b>554,5 %</b>
Andijon shahri	2 594,4	4 353,9	4 900,3	5 871,9	6 038,0	8 237,0	10 196,4	7 602	393 %
Xonobod shahri	604,8	948,2	1 181,8	1 250,9	1 900,7	2 491,4	2 946,6	2 341,8	487,2 %
<i>tumanlar:</i>									
Andijon	528,8	727,8	777,5	942,4	984,8	1 092,1	1 543,4	1 014,6	291,9 %
Asaka	6 286,8	17 111,7	20 778,2	20 753,0	17 487,7	29 503,3	42 460,2	36 173,4	675,4 %
Baliqchi	404,8	517,1	666,9	767,9	1 296,1	1 512,7	2 101,2	1 696,4	519,1 %
Bo‘ston	97,5	148,2	281,6	333,3	329,3	419,8	513,6	416,1	526,8 %
Buloqboshi	167,8	198,4	272,4	329,0	306,0	377,3	436,8	269	260,3 %
Jalaquduq	321,2	414,4	473,7	746,4	889,6	1 169,2	1 537,9	1 216,7	478,8 %
Izboskan	338,3	461,8	392,9	833,7	965,8	1 192,0	1 302,7	964,4	385,1 %
Ulug‘nor	90,5	145,4	187,9	257,1	396,4	445,4	538,3	447,8	594,8 %
Qo‘rg‘ontepa	238,0	330,8	738,1	969,2	1 393,7	2 174,4	2 725,4	2 487,4	1145,1 %
Marhamat	202,0	264,8	331,5	406,2	436,0	596,5	729,8	527,8	361,3 %
Oltinko‘l	370,1	461,9	494,8	671,1	729,3	640,0	1 236,9	866,8	334,2 %
Paxtaobod	123,7	164,9	349,3	544,0	591,6	728,7	961,6	837,9	777,4 %
Xo‘jaobod	368,4	547,8	596,5	886,6	1 057,9	2 224,8	2 925,1	2 556,7	794 %
Shahrixon	532,9	657,7	698,7	813,7	1 132,4	1 547,9	1 423,2	890,3	267,1 %

1-guruh

**Birinchi guruh** Andijon va Asaka shahari bo‘lib, umumi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi 25 foizdan ortiqni tashkil etadi, shuning uchun ham yuqori baholangan.

2-guruh

**Ikkinci guruhga** Xonobod shahri va Xo‘jaobod tumani, shuningdek, Qo‘rg‘ontepa, Baliqchi tumanlari kiradi. Bu guruhda jami kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat yuritayotganlarning ulushi 20 foizdan 25 foizgacha bo‘lganligi sababli o‘rtacha deb baholab olindi

3-guruh

**Uchinchi guruhga** Andijon, Jalaquduq, Shahrixon, Izboskan, Oltinko‘l tumanlari kiradi. Ushbu guruhda faoliyat yurituvchilarning ulushi 10% dan 20% gacha, shuning uchun u past deb baholab olindi.

4-guruh

**To‘rtinchi guruhga** Pahtaobod, Marhamat, Ulug‘nor, Bo‘ston va Buloqboshi tumanlari kiradi. Bu guruhda band bo‘lganlar ulushi 0,1% dan 10% gacha, shuning uchun u eng past deb baholandi.

Shu o‘rinda sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes va xususuy tadbirkorliklarni ulushini aytish mumkinki, respublika hududlari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida eng yuqori ko‘rsatkichlar Navoiy viloyatida 76,4% qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida 30,1% ni tashkil etgan.

Bu esa viloyatda bu borada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masalalar xali mavjud ekanligini namoyon etadi.

Andijon viloyati, shahar va tumanlarini kichik biznes va xusisiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat yuritayotganlarning ulushini 4 guruhga bo‘lib o‘rganganimizda, 1-guruhdagi Andijon va Asaka shahrlarini sanoat sohasidagi kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlarining ulushi yaxshi ekanligini ko‘rshimiz mumkin. 2-guruhda esa Xonobod shahri va Xo‘jaobod tumani, shuningdek, Qo‘rg‘ontepa, Baliqchi tumanlarida jami kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarkibida sanoat sohasida faoliyat yuritayotganlarning ulushi 20 foizdan 25 foizgacha bo‘lganligi sababli o‘rtacha deb baholansa maqsadga muofiq deb o‘ylaymiz. 3-va 4-guruhda esa hali ancha ish qilishimiz kerak ekanligini tumanlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini sanoat sohasidagi yangidan-yangi tarmoqlarini olib kirib kelishligimiz zarur ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

Izchillik bilan amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, korxonalarini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish ishlari korxonalarini rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi davlat siyosati, hududlardagi kichik sanoat zonalari va texnoparklarni tashkil qilish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Andijon viloyati va uning hududlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar davomida sanoatni rivojlantirish bo'yicha Andijon viloyati o'z o'rniga ega va bu yerda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahalliylashtirish izchillik bilan bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Izchillik bilan amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, korxonalarini diversifikatsiya va modernizatsiyalash qilish ishlari korxonalarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, hududlarda kichik sanoat zonalari va texnoparklarni barpo etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtalariga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'yeqtalarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdag'i PF-5780-s'on Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdag'i PQ-4417-s'on qarorlari qabul qilingan.

3. Soliyev, A. (2010). Ijtimoiy-iqtisodiy O'zbekiston hududlarini rivojlantirish. 1-nashr. Toshkent.

4. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar ishlarida huquqshunos olim B.Ibratov tomonidan aytib o'tilgan.

5. Jo'raxonov M.E. "Kichik biznesni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish omillari samaradorliligini oshirish yo'llari" (Andijon viloyati misolida) Monografiya. Andijon-2023.

6. Жураханов М.Э. Факторы влияющие на устойчивое развитие малого бизнеса // «European Journal of Interdisciplinary Research and Development-journal» 2022 –No 16 ISSN (E): 2720-5746.

7. Juraxanov M.E. (2020) "Factors Influencing The Sustainable Expansion Of Small Business Entities And Opportunities For Their Effective Use" The American Journal of Management and Economics Innovations, 2(12), 48-55.

8. D.A.Ismailov, O.Utbasarov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Toshkent SCIENTIFIC PROGRESS jurnalidan maqola.

9. Жураханов М.Э. Анализ эффективности деятельности субъектов малого бизнеса в Андижанской области // «Collquium-journal» 2022 –No 31 (154) ISSN 2520-6990

10. Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi. (2024). Yillik O'zbekiston statistik to'plami hududlar. Mayjud: <https://www.stat.uz/>

11. Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi. (2024). Yillik O'zbekiston statistik to'plami hududlar. Andijon viloyati. Mayjud: <https://www.andstat.uz/>

12. Tursunov, R. (2015). Ekonometrik rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Jurnali ilmiy elektron "Iqtisodiyot va Innovatsion texnologiyalar" (№4), bet. 41-42. Manbada mavjud <http://www.iqtisodiyot.uz/>